
1 MAYDAN QONUNCHILIKDA NIMALAR O'ZGARADI?



1 maydan qonunchilikda nimalar o'zgaradi?

Ish haqi oshadi

Prezident farmoniga ko'ra, 1 may kundan byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori 7 foizga oshiriladi. Shuningdek, O'zbekiston hududida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori - oyiga 980 ming so'm, bazaviy hisoblash miqdori - oyiga 330 ming so'm etib belgilanadi.

Jarimalar uchun 50% chegirma

Tegishli qonunga muvofiq 2023 yil 1 maydan ma'muriy jarimalarni 15 kun ichida to'laganlik uchun chegirma miqdori oshiriladi. Bunda huquqbuzar unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab 15 kun ichida jarima miqdorining 50 foizini yoki 30 kun ichida 70 foizini ixtiyoriy ravishda to'lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod qilinadi. Mazkur tartib sud qaroriga asosan qo'llanadigan jarimalarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

I.Madaminov - So'x tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-05 15:26:03